




0

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-sentabr)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga sog'lom raqobat muhitida sifatli va raqobatbardosh hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, o'z vaqtida xaridorlarga yetkazilishida bir qator qulayliklar tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Shuningdek, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda, xususan, davlat soliqlarining ma'lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo'lib to'lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o'sishiga xizmat qiladi.

2022- yil yanvar-sentabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 3 983,7 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 13,2 mln. AQSh dollariga yoki 3,8 %ga ko'paydi.






TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TSAda eksport hajmi 1514,2 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 104,0 %) va import hajmi 2469,5 mln. AQSh dollariga (o'zgarish sur'ati – 102,3 %) yetdi. Hisobot davrida 955,4 mln. AQSh dollari qiymatida salbiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)



TASHQI SAVDO AYLANMASINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2021- yil yanvar-sentabrga nisbatan, %da)

2022- yil yanvar-avgust

■ Tashqi savdo aylanmasi ■ Eksport ■ Import





TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2022- yil yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)

Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, %da
Rossiya Federatsiyasi	912,5	350,9	561,6	22,9
Xitoy	831,9	302,1	529,8	20,9
Qozog'iston	669,6	99,9	569,7	16,8
Turkiya	570,5	446,1	124,4	14,3
Braziliya	204,8	0,0	204,8	5,1
Tojikiston	77,6	46,1	31,5	1,9
Belorussiya	58,5	18,8	39,7	1,5
Italiya	54,7	20,5	34,2	1,4
Afg'oniston	48,9	48,5	0,4	1,2
Germaniya	48,5	6,4	42,1	1,2
Qirg'iz Respublikasi	48,1	28,6	19,5	1,2
Koreya Respublikasi	35,2	6,5	28,7	0,9
Ukraina	34,4	14,2	20,2	0,9
Litva	26,3	3,8	22,5	0,7
Hindiston	24,8	3,4	21,4	0,6
Niderlandiya	24,2	18,3	5,9	0,6
Ozarbajjon	23,5	6,2	17,3	0,6
Daniya	23,3	0,0	23,3	0,6




TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Viloyatda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 46,3 %ni hamda o‘zgarish sur‘ati 2021- yilning shu davriga nisbatan 101,4 %ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 53,7 %ni (2021- yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 53,0 %ni tashkil qilgan), o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 104,3 %ni tashkil etdi.

TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI (2022- yil yanvar-sentabr, % hisobida)






TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2022- yil yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)

MDH davlatlaridan Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo'shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya, Niderlandiya va Singapur davlatlari bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko'rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog'iston va Turkiya davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.




TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2022- yil yanvar-sentabr)

Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko‘mak berilmoqda.

2022-yil yanvar-sentabr oyi yakuni bilan 1514,1 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2021- yilning shu davriga nisbatan 105,1 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi. Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,7 %ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (69,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (9,6 %), turli xil tayyor buyumlar (9,5 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (3,5 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (3,8 %), shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalari (3,2 %) guruhlariga to‘g‘ri kelmoqda.



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)
- Hayvon va o‘simliklar moylari, yog‘lar va mumlar
- Sanoat tovarlari
- Turli xil tayyor buyumlar
- Ichimliklar va tamaki
- Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabilar
- Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Xizmatlar



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-sentabr)

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	1514,1	577,4	936,7	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	147,6	84,9	62,7	9,6	14,5	6,7
Ichimliklar va tamaki	2,9	2,8	0,1	0,2	0,5	0,01
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	52,5	27,4	25,1	3,5	5,0	2,6
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	2,7	0,7	2,0	0,2	0,1	0,2
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	1,5	0,2	1,3	0,1	0,04	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	59,5	44,8	14,7	3,8	7,7	1,5
Sanoat tovarlari	1047,2	244,4	802,8	69,6	41,6	86,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	48,4	31,2	17,2	3,2	5,7	1,8
Turli xil tayyor buyumlar	144,3	139,0	5,3	9,5	24,6	0,6
Xizmatlar	7,5	2,0	5,5	0,3	0,3	0,3





TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O‘SISH SUR‘ATLARI (2022- yil yanvar-sentabr)



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2021- yilning mos davriga nisbatan, mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar, ichimliklar va tamaki, kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar, sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlarda o‘shish kuzatildi.

Tarkibi	2021- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	104,0	118,7	96,6
shu jumladan:			
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	103,5	103,0	104,2
Ichimliklar va tamaki	148,9	147,6	181,0
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	76,1	62,4	100,2
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	10,3 m.	3,9 m.	21,8 m.
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	156,7	3,8 m.	143,7
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	107,0	117,2	84,7
Sanoat tovarlari	100,4	124,8	94,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	2,0 m.	2,2 m.	173,7
Turli xil tayyor buyumlar	128,6	128,3	136,8
Xizmatlar	107,5	176,6	94,3



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-sentabr)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Turkiya, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Afg'oniston, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi hamkor davlatlaridan jami eksport hajmi 1322,2 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy eksport hajmining 87,3%ini tashkil qiladi.



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 91,8 mln. dollar qiymatga ega 144,7 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2021- yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 3,5 %ga kamaygan, naturada – 16,2 %ga kamayish bo'lgan, Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 35,0 mln. AQSh dollariga teng 66,4 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 33,1 %ga kamaygan), shuningdek, 26,4 mln. AQSh dollari qiymatidagi 23,4 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda o'zgarish sur'ati 7,9 %ga kamaygan).

2022- yil yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari



Meva va
rezavorlar
23,4 ming tonna
26,4 mln.
AQSh dollari



Uzum
19,5 ming
tonna
19,2 mln.
AQSh dollari



Yeryon-g'oqlar
2,2 ming tonna
3,0 mln. AQSH
dollari



Sabzavotlar
66,4 ming tonna
35,0 mln. AQSH
dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 80,6 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 5,3 %ini tashkil qiladi.




TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2022- yil yanvar-sentabr)

Mamlakatimizda faoliyat yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylari mobaynida import hajmi 2469,5 mln. AQSh dollari (2021- yilning shu davriga nisbatan o'zgarish sur'ati 99,8 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (21,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (20,7 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (19,8 %), sanoat tovarlari (18,2 %) hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (10,1 %) hisobiga to'g'ri keldi.





TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-sentabr)

Tarkibi	mln. AQSh dollari			Jamiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	2469,5	1267,0	1202,5	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	512,1	217,5	294,6	20,7	17,2	24,5
Ichimliklar va tamaki	4,4	4,3	0,1	0,2	0,3	0,01
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	489,6	462,5	27,1	19,8	36,5	2,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	85,3	83,8	1,5	3,5	6,6	0,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	43,7	40,0	3,7	1,8	3,2	0,3
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	250,6	66,7	183,9	10,1	5,3	15,3
Sanoat tovarlari	449,3	312,1	137,2	18,2	24,6	11,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	535,2	63,3	471,9	21,7	5,0	39,2
Turli xil tayyor buyumlar	90,4	13,6	76,8	3,7	1,1	6,4
Boshqa tovarlar	2,8	1,9	0,9	0,1	0,2	0,1
Xizmatlar	6,1	1,3	4,8	0,2	0,1	0,4



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Importning eng katta ulushi nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilgʻidan tashqari) (36,5 %) va sanoat tovarlari (24,6 %) MDH mamlakatlariga toʻgʻri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (39,2 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (24,5 %) hissasiga toʻgʻri keladi.


MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTNING OʻZGARISH SURʼATLARI (2022- yil yanvar-sentabr, % hisobida)

Tarkibi	2021- yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	102,3	95,1	111,2
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	144,6	148,2	142,1
Ichimliklar va tamaki	64,3	66,7	18,4
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilgʻidan tashqari)	93,2	91,3	143,0
Mineral yoqilgʻi, yogʻlash moylari va shu kabi materiallar	121,5	121,4	124,2
Hayvon va oʻsimliklar moylari (yogʻlari), yogʻlar va mumlar	74,5	74,3	76,7
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	124,8	108,9	131,8
Sanoat tovarlari	107,0	107,1	106,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	83,1	37,0	99,8
Turli xil tayyor buyumlar	89,2	70,0	93,7
Boshqa tovarlar	27,1	46,3	14,2
Xizmatlar	27,1	44,8	24,5



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-sentabr)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Braziliya, Turkiya, Germaniya va Italiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 2072,0 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 83,9 %ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi**
Tel.: (71) 202-86-59